



# JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## JIZZAX VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI (Dastlabki ma'lumotlar)

Jizzax viloyatining doimiy aholisi soni 2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra **1435,0 ming kishini** tashkil etib, yil boshidan **24,5** ming kishiga yoki **101,7 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **671,4** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **46,8 %**), qishloq aholisi soni **763,6** ming kishi (**53,2 %**) ni tashkil etdi.

**2021 yil 1-oktabr holatiga doimiy aholisi soni**  
**1435,0 ming kishi.**





# JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



**Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o‘tgan  
yilning shu davriga nisbatan taq qoslanishi  
(2021- yil yanvar-sentabr oylarida, ming kishi)**


	2020 -yil	2021-yil*	O‘sish sur’ati %
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>1403,2</b>	<b>1435,0</b>	<b>102,3</b>
Jizzax sh.	179,7	183,9	102,3
Arnasoy	46,3	47,1	101,8
Baxmal	158,6	162,3	102,3
G‘allaorol	174,1	178,0	102,2
Sh. Rashidov	224,6	231,0	102,9
Do‘stlik	66,3	67,4	101,6
Zomin	166,1	170,2	102,4
Zarbdor	87,5	89,8	102,7
Mirzacho‘l	52,4	53,3	101,6
Zafarobod	50,3	51,3	102,0
Paxtakor	75,3	76,9	102,2
Forish	93,5	94,9	101,5
Yangiobod	28,5	28,9	101,5



# JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2021- yil 1- oktabr holatiga, ming kishi)




Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021- yil 1- oktabr holatiga eng ko'p aholi soni Sh. Rashidov tumanida 231,0 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 16,1 % ni) va Jizzax shahrida 183,9 ming kishini (12,8 ), aksincha eng kam aholi soni Yangiobod tumanida 28,9 ming kishini (2,0 %) va Arnasoy 47,1 ming kishi (3,3 %) tashkil etdi.



## TUG'ILISH

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 30,8 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 29,0 promilleni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 1,9 promillega ko'paygan (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida 27,1 promille bo'lgan).



Tug'ilish koeffitsiyenti 2020- yilning mos davriga nisbatan Zomin tumanida (28,7 promilledan 31,6 promillega) va Jizzax shahar (22,5 promilledan 29,7 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Mirzacho'l tumanida (21,1 promilledan 20,8 promillega) va Yangiobod tumanida (25,8 promilledan 23,2 promillega) kuzatildi.



# JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## Jizzax viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi (2021-yil yanvar-sentabr)

	2020 -yil	2021-yil*	O'sish sur'ati %
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>28276</b>	<b>30824</b>	<b>109,0</b>
Jizzax sh.	3012	4045	134,3
Arnasoy	786	848	107,9
Baxmal	3760	3984	106,0
G'allaorol	3788	4066	107,3
Sh. Rashidov	4904	4890	99,7
Do'stlik	1164	1234	106,0
Zomin	3538	3978	112,4
Zarbdor	1921	2020	105,2
Mirzacho'l	823	825	100,2
Zafarobod	928	1031	111,1
Paxtakor	1394	1632	117,1
Forish	1712	1771	103,4
Yangiobod	546	500	91,6



# JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## TUG'ILGANLAR SONI

**Ma'lumot uchun!: tirk tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bolsa bola tirk tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.**



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 30,8 mingta tug'ilganlar qayd etilgan bo'lib, shundan o'g'il bolalar 52,3 %, qiz bolalar 47,7 % ni tashkil etadi.



# JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



## VAFOT ETGANLAR

2021- yilning yanvar – sentabr oylarida **4446** ta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti **4,2** promilleni tashkil etdi.

### Asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha

yanvar – sentabr

Vafot etganlar soni,  
kishi

2199

Qon aylanish tizimi  
kasalliklaridan

49,4

728

Boshqa kasalliklardan

16,4

398

O‘simgatalardan

8,9

387

Baxtsiz hodisa, zaharlanish  
va jarohatlanishlardan

8,7

408

Nafas olish a’zolari  
kasalliklaridan

9,2

221

Ovqat hazm qilish a’zolari  
kasalliklaridan

5,0

105

Yuqumli va parazitar  
kasalliklardan

2,4

Jamiga nisbatan ulushi,

% da



# JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2021- yilning yanvar – sentabr oylarida 255 ta 1 yoshgacha go'dakiar o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 tirk tug'ilganga go'dakiar o'lim koeffitsiyenti 8,7 promilleni tashkil etdi.

## Asosiy o'lim sabablari bo'yicha 1 yoshgacha vafot etganlar



# JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**4,7 %**

**9,2 ming birlik**

**NIKOH**

O'tgan yilga nisbatan foizda



**26,6 %**


**0,9 ming birlik**

**AJRIM**

O'tgan yilga nisbatan foizda



**Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti  
(2021-yil yanvar-sentabr, ming birlik)**





# JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## Aholi migratsiyasi (ming kishi)



2021- yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 7,0 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 8,9 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 1,9 ming kishi bo'lib, 2020- yilning mos davrida minus 2,5 ming kishi bo'lgan.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)



	2020- yil yanvar-sentabr	2021- yil yanvar- sentabr
Ko'chib kelganlar	5,0	7,0
Ko'chib ketganlar	7,5	8,9
Migratsiya sa'lidosi	-2,5	-1,9

Migratsiya saldosi Baxmal (-0,5 ming kishi), G'allaorol (-0,5 ming kishi) va Forish (-0,4 ming kishi), Paxtakor (-0,2 ming kishi) tumanlarida ko'chib ketganlar soni ko'chib kelganlar soniga nisbatan sezilarli darajada balandligi kuzatildi.

Migratsiya saldosining ijobiy darajasi Sh.Rashidov tumanida (0,6 ming kishi) kuzatildi.

*"Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi" (72) 221-51-19, (72) 222-81-39*